

**CONTINUING EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE,
INNOVATION, AND TRANSFORMATION.**
International online conference.

Date: 29th May-2025

**BOLALARНИ KITOB O'QISHIGA NIMA TO'SQINLIK QILMOQDA VA
ULARGA YECHIMLAR.**

Ismoiljon Ne'matov Baxromjon o'g'li

Farg'onan davlat universiteti 1-kurs magistranti

ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-8551-4921>

Gmail: ismoiljonnematov102@gamil.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab o'quvchilari orasida kitob o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayish sabablari va ularning yechimlari haqida fikr yuritiladi. Muallif so'rovnama asosida o'quvchilarining kitobga munosabatini o'rganib, diqqat tarqoqligi, ijtimoiy tarmoqlar ta'siri, oila muhitining yetishmovchiligi kabi omillarni asosiy sabablar sifatida ko'rsatgan. Shu bilan birga, bu muammoni bartaraf etish uchun oiladagi o'rnak bo'lish, ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy targ'ibot, musobaqalar tashkil etish kabi takliflar ilgari surilgan. Maqola kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda amaliy yondashuvlarni ilgari surgani bilan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: kitobxonlik, maktab o'quvchilari, diqqat tarqoqligi, ijtimoiy tarmoqlar, ota-onan roli, targ'ibot, musobaqa, ijtimoiy ta'sir, o'rnak bo'lish, o'quvchilar so'rovnomasi.

**WHAT PREVENTS CHILDREN FROM READING BOOKS AND SOLUTIONS
FOR THEM.**

Annotation: This article discusses the reasons for the decline in interest in reading among schoolchildren and their solutions. Based on a survey, the author studied the attitude of readers to the book and identified such factors as distraction, the influence of social networks, and the lack of a family environment as the main reasons. At the same time, proposals were put forward to eliminate this problem, such as setting an example in the family, conducting positive promotion on social networks, and organizing competitions. The article is significant because it promotes practical approaches to the formation of a reading culture.

Key words: reading, schoolchildren, distraction, social networks, role of parents, promotion, competition, social influence, setting an example, student survey.

ЧТО МЕШАЕТ ДЕТЬЯМ ЧИТАТЬ КНИГИ И РЕШЕНИЯ ДЛЯ НИХ.

Аннотация: В данной статье рассматриваются причины снижения интереса к чтению среди школьников и пути их решения. Автор на основе опроса изучил отношение читателей к книге и указал в качестве основных причин такие факторы, как рассеянность внимания, влияние социальных сетей, недостаток семейной среды. Вместе с тем, для устранения этой проблемы выдвинуты предложения по примеру в семье, положительной пропаганде в социальных сетях, организации соревнований.

CONTINUING EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE, INNOVATION, AND TRANSFORMATION.

International online conference.

Date: 29th May-2025



Статья важна тем, что продвигает практические подходы к формированию культуры чтения.

Ключевые слова: чтение, школьники, рассеянность внимания, социальные сети, роль родителей, пропаганда, соревнование, социальное влияние, быть примером, опрос учащихся.

KIRISH

XXI asrda maktab bolalarini diqqatini bir joyda turishi deyarli imkonsiz ishday tuyulmoqda. Bu haqida ajoyib bir ilmiy izlanish ham o'tkazildi olimlar tomonida. Bu tadqiqotni "Brainscape" jamoasi a'zosi Gloriya Mark(phd) tomonidan amal oshirildi. Unga ko'ra 2004 yil va hozirgi davrdagi insonlarning diqqat qilish jarayoni qanchalik uzoqqa yetishini isbotlash uchun ikkala davrni taqqoslab ko'rgan. Misol uchun 2004-yilda insonlar o'rtacha har 150 sekundda diqqati bo'linishi isbotlangan. 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich atigi 40 sekundni tashkil qilmoqda. Ya'ni har 40 sekundda bizning miyamiz asosiy ishni unutib boshqa hayollarga cho'madi deganidir. Bunga sabab esa ijtimoiy tarmoqlardagi qisqa vaqtli videolar hamda tezkor yangiliklar deb keltirib o'tilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shaxsan o'zimdan kelib chiqadigan bo'lsam, bunday holat menda ham sodir bo'layotganini guvohi bo'ldim. Zamonaviy gadgetlar hamda insonlarga yaratilgan qulayliklar ortidan bizning miyamiz ham shunga monand holda dangasalashib bormoqda. Avvalgi insonlardan eshitgan aqliy mehnat qanday amalga oshirilganligi haqidagi ro'yrost gaplar, bizlar uchun ertaknamoday eshitilishi mumkin. Shunday ekan bunday qiyin vaziyatda hattoki kattalar ham amalga oshira olmayotgan kitob mutolaa qilishni qanday qilib yosh avlod amalga oshirsin?!

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shuning uchun yuqoridagi ma'lumotlar o'zimning shaxsiy tajribalarim va chet el tadqiqotlariga asoslangani bo'lganligi sababli, o'zim maktabdagi vaziyatni bilish uchun Farg'ona shahridagi 42-umumo'rta ta'llim maktabi o'quvchilaridan so'rovnama tashkil etdim. Bu so'rovnomadan asosiy maqsadim ularning kitob o'qimasligiga sababni qanday ko'rishlarida edi. Jami 5 ta yuqori sinflarda o'tkazdim ushbu tashabbusni. Qatnashgan o'quvchilar soni 80 ga yaqin. Eng qiziq tomoni savollar shablonimdagi quyidagi savolga deyarli barcha o'quvchi ijobiy javob berishgan. Savol quyidagicha edi: "Kitob sotib olishda ota-onangiz qarshilik ko'rsatishmaydim?" Demak ota-ona qarshi bo'lmagan sharoitda tanlov ularning o'zlarida qolmoqda. Keling endi bunday vaziyatda faqat bolalarda tanlov deb shunday qoldirmasdan ularga yetarlicha alternativlar taqdim etaylikki ularning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishi ortsin.

Eng avvalo ota-onalar va aka-opalar birinchi o'rinda kichiklarga namuna bo'lishlari kerak. Bo'sh vaqtlarida albatta kitob mutolaasi bilan shug'ullanishi shart. Ahir inson ko'proq ko'rganiga taqlid qiladi, eshitganiga emas. Biz ularga kitob o'qishni qanchalik ko'kka ko'taraversak-u o'zimiz amal qilmasak, ba'ri befoyda.

CONTINUING EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE, INNOVATION, AND TRANSFORMATION.

International online conference.

Date: 29th May-2025



Qolaversa yaqinda juda mashhurlikka erishgan, jamiyat orasida “Tirik kitob” tahallusi bilan tanilgan shaxsning kitobga bo‘lgan muhabbatি butun atrofidagi insonlarga qanchalik ta’sir qilganini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Shunday ekan birinchi navbatda biz kattalar o‘rnak bo‘lishimiz kerak.

Keyingi yechim sifatida esa mediani kuchini misol qilishimiz mumkin. Hozirgi kunda deyarli barcha yoshlar ijtimoiy tarmoqlar va ilovalardan foydalanishda faoliy ko‘rsatishmoqda. Shunday vaziyatda kitobxon insonlar, yosh-u qarilar o‘qiyotgan kitobi haqida shaxsiy sahifalarida o‘z fikrlarini ularshib bormog‘i darkor. Ahir ularga o‘rnak bo‘lish uchun barcha birday mas’uldir.

Yana bir yechim sifatida kitobga xos sovg‘alik musobaqalar tashkil etishni samarli ta’sir o‘tkazadi deb aytishimiz mumkin. Misol uchun 2020-yil pandemiya davrida Farg‘ona viloyat hokimining tashabbusi bilan tashkil etilgan “Kitobxonlik” tanlovi ijobiy ta’sir o‘tkazdi. Shaxsan mening singlim ham ushbu tanlovda g‘oliblar safidan joy egallab, kitoblar yutib oldi. Bir emas 30 dan oshiq kitoblar. Ularni esa keying yillar davomida o‘qib chiqdik. Demak, bunday musobaqalar nafaqat qatnashuvchilarni, balki atrofdagi insonlarni ham kitob o‘qishga undashi uchun xizmat qiladi.

So‘ngi yillarda esa kitob do‘konlarining tashabbuslarini ham alohida aytib o‘tish kerak deb hisoblayman. Barchamizga ma’lumki barcha insonlarning ham kitob uchun ajratadigan mablag‘i yetarlicha bo‘lmasligi mumkin. Aynan shuni o‘ylagan holda asaxiy.uz jamaoasi barcha kitoblariga 50% yuqori bo‘lgan chegirmalar e’lon qilishdi. Bu esa jamiyat ichida sezilarli kitobxon yoshlar borligini o‘scha chegirmali kundagi vaziyatdan ijtimoiy tarmoqlar orqali guvohi bo‘ldik. Shungan keyin bu chellenjni boshqa tashkilotlar ham amalga oshirishdi. Bu ham o‘ziga yarasha insonlarni kitobga chorladi desa ham bo‘ladi.

Ammo, maktab o‘quvchilarining kitobga bo‘lgan qarashlari umuman turfa hil. Ular ergashadigan ko‘p insonlar media olamida tanilgan qo‘shiqchi, aktyor yoki aktrisalar yoki bo‘lmasam ijtimoiy tarmoqlarda mashhur blog egalaridir. Ular aksariyat hollarda kitob mutolaasini targ‘ib qilishlari mumkin, ammo juda ko‘plab jabhalarda o‘zlarining “luxury” hayot tarzini ko‘z-ko‘z qilish bilan ovoralar. Men bunda yomon illatni ko‘rmayman, ammo yoshlarni bu qarashlar hayot tarziga ta’sir qilib, hozirgi ayni holatdagi sharoitidan nolish hissi paydo bo‘lishiga sababchi bo‘lishlari mumkin. Aynan o‘qituvchilar ular orasida bo‘lamagnligi sababli, ular havas qiladigan shaxslarning fikrini ularnikidan ustun qo‘yishlari bor gap.

XULOSA

Bunday qiyin davrda o‘qituvchilik kasbini sevib ishlayotgan barchaga g‘oyibona o‘z minnatdorchiligidagi yo‘llab qolaman. Kun keladi, sizday insonlarning har bir harakatlaringiz uchun butun jamiyat qo‘llab-quvvatlab sizlarga ergashishadi. Aynan sizlarning “kitob o‘qinglar” degan targ‘ibotingizni o‘zi yetarli bo‘ladi amal qilish uchun.

**CONTINUING EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE,
INNOVATION, AND TRANSFORMATION.**
International online conference.

Date: 29th May-2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mark, Gloria. Attention Span: A Groundbreaking Way to Restore Balance, Happiness and Productivity. Hanover Square Press, 2023.
2. Brainscape.com - Attention Span Research Summary. (2024-yil yangilangan)
3. Asaxiy.uz rasmiy sahifasi - Kitoblar uchun chegirmalar (2023)
4. Farg‘ona viloyat hokimligi - “Kitobxonlik” tanlovi haqidagi press-relizlar (2020)
5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi – Kitobxonlikni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar

